

## YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI VA UNI TAMINLASH

*Akbarov Xudoberdi*

*Andijon davlat texnika instituti*

*"Avtomobilsozlik va transport" fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad yo'l harakati qatnashchilarining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishning qonuniy kafolatlarini mustahkamlashdir. Bu borada yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning yangicha va zamoviy mexanizmlarni ishlab chiqish, ushbu faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, muammolarni tadqiq etish va bartaraf etish bo'yicha samarali metodlarini ishlab chiqish muhim ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Mazkur ishda inson omili, transport vositalari holati, yo'l infratuzilmasi va zamonaviy texnologiyalar orqali avtohalokatlarning oldini olish choralari tahlil qilinadi. Shuningdek, haydovchilar va piyodalar uchun xavfsiz harakat qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yo'l harakati xavfsizligi, avtohalokatlar, haydovchi mas'uliyati, piyodalar xavfsizligi, yo'l infratuzilmasi, , tezlik va tartib, ravon yo'l dasturi, jamoat transporti.

**Abstract:** The main objective of the reforms being implemented in the field of ensuring road safety, as discussed in this article, is to strengthen the legal guarantees for protecting the lives and health of road users. In this regard, the importance of developing new and modern mechanisms for ensuring road safety, conducting scientific research in these areas of activity, and creating effective methods for investigating and eliminating problems is highlighted. This paper analyzes measures to prevent road accidents through the assessment of the human factor, vehicle condition, road infrastructure, and modern technologies. Furthermore, recommendations for safe movement are provided for both drivers and pedestrians.

**Keywords:** Road safety, traffic accidents, driver responsibility, pedestrian safety, road infrastructure, speed and order, "Smooth Road" program, public transport.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается основной целью проводимых реформ в сфере обеспечения безопасности дорожного движения является укрепление правовых гарантий защиты жизни и здоровья участников дорожного движения. В связи с этим подчеркивается важность разработки новых и современных механизмов обеспечения безопасности дорожного движения, проведения научных исследований по данным направлениям деятельности, а также разработки эффективных методов изучения и устранения существующих

проблем. В работе анализируются меры по предотвращению дорожно-транспортных происшествий через призму человеческого фактора, состояния транспортных средств, дорожной инфраструктуры и внедрения современных технологий. Также даны рекомендации по безопасному движению для водителей и пешеходов.

**Ключевые слова:** Безопасность дорожного движения, дорожно-транспортные происшествия (ДТП), ответственность водителя, безопасность пешеходов, дорожная инфраструктура, скорость и порядок, **программа «Равон йул» (Гладкая дорога), общественный транспорт.**

**Yo'l harakati xavfsizligi** — bu yo'llarda odamlar hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini avtotransport hodisalaridan hamda ularning oqibatlaridan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va muhandislik-texnik chora-tadbirlar majmuidir. Bu tushuncha qoidalarga rioya etish, infratuzilmani yaxshilash va harakat ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Huquqiy asos: O'zbekiston Respublikasining "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni va yo'l harakati qoidalari.

Maqsad: Harakatlanish xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish va insonlar hayotini saqlab qolish.

Nazorat: Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (DYHXX) tomonidan haydovchilar va piyodalar qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.

Infratuzilma: Yo'llarning holati, belgilar va chorrahalarini to'g'ri tashkil etish.

Yo'l harakati havfsizligini ta'minlashni nazariy o'rganish ob'ektlari qatorida "yo'l harakati xavfsizligi" tushunchasini o'rganish markaziy o'rinni egallaydi. "Yo'l harakati xavfsizligi" tushunchasining turli xil ta'riflari borligiga uning mazmunida bo'ladigan doimiy o'zgarishlar bilan izohlanadi. Bu har qanday hodisaning tabiiy holatidir. Yo'l harakati xavfsizligining mazmuni davlat rivojlanishining o'ziga xos tarixiy shart-sharoitlari, uning nazariy tushunchasi va qonunchilikni tartibga solish holati bilan ham belgilanadi. Shunday qilib, 90-yillarda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar oqibatida XX asrning oxirlarida shakllangan ushbu kategoriyaning izohi, sovet davridagi tushunchadan mutlaqo farq qiladi.

Yo'l harakati xavfsizligi – bu yo'l transport vositalari, piyodalar va boshqa yo'l foydalanuvchilarining harakatini tartibga solish orqali avtohalokatlar va jarohatlarni oldini olish tizimi hisoblanadi. Ushbu tushuncha nafaqat haydovchilar, balki barcha yo'l foydalanuvchilari uchun muhimdir.

2022 — 2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummilliy dasturini tasdiqlash to'g'risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, yo‘l harakatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, avtomobil yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirish va yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida:

1. Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini keskin qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minlash maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi 2022 — 2026-yillar davomida respublika hududida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur) ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

- avtomobil yo‘llari infratuzilmasini kompleks takomillashtirish;
- avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarish tizimini raqamlashtirish;
- jamoat transportini rivojlantirish va raqamlashtirish;

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, bolalarga yo‘l harakati qoidalarini amaliy o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish; haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni kuchaytirish.

Dasturda belgilangan manzilli tadbirlarning amalga oshirilishini o‘z vaqtida va to‘liq ta’minlashga qaratilgan quyidagi nazorat tartibi o‘rnatilsin:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari — har chorakda mas’ul davlat organlari tomonidan dastur ijrosi amalga oshirilishi yuzasidan hududlar kesimida o‘rganishlarni o‘tkazish va natijalari bo‘yicha Bosh prokuraturaga axborot berishni tashkil etsin;

Bosh prokuratura (N.T. Yo‘ldoshev), Hisob palata (B.T. Turabov) — har chorakda mas’ul davlat organlari rahbarlarining Dastur ijrosi, shu jumladan hududlar kesimida amalga oshirilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish va bajarilmayotgan masalalari yuzasidan tanqidiy muhokama qilish maqsadida Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasiga axborot kiritish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin.

Yo‘l harakati xavfsizligi faqat qoidalar to‘plami emas, balki haydovchining zimmasidagi ulkan ma’naviy va huquqiy mas’uliyatdir. Rulga o‘tirgan har bir shaxs nafaqat o‘z hayoti, balki yo‘lovchilar va boshqa harakat ishtirokchilari uchun ham javobgar hisoblanadi.

Haydovchi mas’uliyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin:

**Huquqiy mas'uliyat**

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, haydovchi yo'l harakati qoidalarini (YHQ) buzganligi uchun bir necha turdagi javobgarlikka tortilishi mumkin:

**Ma'muriy javobgarlik:** Tezlikni oshirish, svetoforming qizil chirog'ida o'tish yoki kamar taqmaslik kabi holatlar uchun jarimalar.

**Fuqarolik javobgarligi:** Yo'l-transport hodisasi (YTH) sodir bo'lganda yetkazilgan moddiy zararni qoplash majburiyati.

**Jinoiy javobgarlik:** Mast holda haydash yoki ehtiyotsizlik oqibatida inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazish yoxud o'limga sabab bo'lish holatlarida ozodlikdan mahrum etishgacha bo'lgan jazolar.

**Texnik mas'uliyat**

Haydovchi yo'lga chiqishdan oldin transport vositasining sozligini tekshirishi shart. Bunga quyidagilar kiradi:

Tormoz tizimi va rul boshqaruvining ishlashi.

Tashqi yoritish chiroqlarining sozligi.

G'ildiraklar holati va mavsumga mosligi.

**Ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyat:**

Bu haydovchining madaniyati va boshqalarga bo'lgan hurmatini belgilaydi:

**Hushyorlik:** Charchagan yoki dori vositalari ta'sirida rulga o'tirmaslik.

**O'zaro hurmat:** Piyodalarga yo'l berish, "agressiv" haydashdan tiyilish.

**Diqqatni jamlash:** Rulda telefon ishlatishdan mutlaqo voz kechish (bu ko'plab baxtsiz hodisalarning asosiy sababidir).

**Haydovchining oltin qoidalari:**


"Yo'l xatoni kechirmaydi. Bir soniyalik e'tiborsizlik bir umrlik afsusga sabab bo'lishi mumkin."

Piyodalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olish, piyodalar harakatining ustuvorligini hamda yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:


Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidalariga ilovaga muvofiq "Baland piyodalar o'tish joylari" yo'l belgisini hamda yo'l yotiq chiziqlarini joriy qilishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.




5.48. "Baland piyodalar o'tish joyi";



1.29.1-sun'iy notekislik (baland piyodalar o'tish joyini bildiradi);



1.29.2-sun'iy notekislik (avtomobil yo'llarida "3D" ko'rinishdagi baland piyodalar o'tish joyini bildiradi);



### **1.29.3- avtomobil yo'llarida "3D" ko'rinishdagi piyodalar o'tish joyi;**

Jamoat transporti ustuvorligi va raqamlashtirilgan

transport aql-li shahar tizimining asosiy tasnifi; Jamoat transporti ustuvorligi - bu shahar transport tizimida jamoat transport vositalariga (avtobus, metro, tramvay) alohida imkoniyatlar berish orqali shaxsiy avtomobillarga qaraganda ularni tezroq va samaraliroq harakatlantirishdir. Bu tirbandliklarni kamaytirish, ekologiyani yaxshilash va aholining harakatini qulaylashtirishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirilgan transport aql-li shahar tizimi esa IoT (Internet of Things), AI (sun'iy intellekt) va real vaqt ma'lumotlarini ishlatib, transport oqimini boshqarishni avtomatlashtiradi. O'zbekistonda bu Toshkent shahar jamoat transporti tizimini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan

Ahamiyati:

Tirbandliklarni 20-30% ga kamaytirish;

Yo'l-transport hodisalarini 15% ga qisqartirish;

Ekologik ta'simi kamaytirish (CO2 emissiyasini 10-25% ga pasaytirish).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Климова Г.Н., Повышение работоспособности водителей автобусов в условиях города 2003/ Г.Н.
- 2.Климова, Э.Н. Бусарин, А.В. Старкова // Научно-электронный журнал «Концепт» том № 35 стр. 71-75 Сб. науч. тр. «Прогрессивные технологии транспорта и БДД» по мат. Межд.науч. практ. конф.- Саратов 3.<https://lex.uz/docs/-2656555>
- 4.<https://regulation.gov.uz/uz/d/53261>
- 5.<https://lex.uz>
6. Yo'l harakati xavfsizligi metodologiyasi
7. Jamoat transporti rivojlanish bosqichlari.